O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI (1991-2026-YILLAR)

O‘zMU tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistri

Jo‘rayev Og‘abek Rustam o‘g‘li

+99890-313-89-53

ogabekdjuraev@gmail.com

Annotatsiya: ***Mazkur maqolada O‘zbekistonda 1991-2026-yillar*** davomida ijtimoiy himoya siyosatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillikning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, O‘zbekiston, islohotlar, aholi farovonligi, davlat dasturlari.

Dolzarbligi: O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatining shakllanish jarayonlarini 1991–2021-yillar kesimida o‘rganish bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, siyosiy va ijtimoiy tizimlarning tubdan o‘zgarishi aholining turmush darajasi va ijtimoiy xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu bois, ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1991-2026-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati bosqichma-bosqich takomillashib, pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar, bandlikni ta’minlash, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash va aholining zaif qatlamlari manfaatlarini himoyalashga qaratilgan keng qamrovli tizimga aylandi.

Xususan, 2026-yildan keyingi davrda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan keng

ko‘lamli islohotlar, manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarining joriy etilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshirilishi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, globalizatsiya, demografik o‘zgarishlar, migratsiya jarayonlari hamda pandemiya kabi omillar ijtimoiy himoya tizimiga yangi talab va vazifalarni yukladi. Ushbu sharoitda O‘zbekiston tajribasini tarixiy va tizimli jihatdan o‘rganish, ijtimoiy himoya siyosatining yutuqlari va muammolarini aniqlash kelgusida samarali ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur mavzu nafaqat tarixiy tahlil, balki hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy islohotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatining shakllanish jarayonlari (1991–2021-yillar)” mavzusini yoritishda tarixiy va ijtimoiy fanlarga xos ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalaniladi. Xususan, tarixiylik va mantiqiylik metodlari orqali ijtimoiy himoya siyosatining mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tizimli yondashuv metodi yordamida ijtimoiy himoya siyosati yagona mexanizm sifatida ko‘rib chiqilib, uning tarkibiy qismlari — pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar, bandlik siyosati va manzilli ijtimoiy yordam o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatining turli davrlardagi xususiyatlari taqqoslanadi hamda xalqaro tajriba bilan qisman solishtiriladi. Statistik tahlil metodidan foydalangan holda rasmiy ma’lumotlar asosida aholining ijtimoiy ta’minlanganlik darajasi, nafaqa va pensiya tizimidagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Bundan tashqari, huquqiy tahlil metodi orqali ijtimoiy himoya sohasiga oid qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Mazkur metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xolisligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati masalalari mustaqillik yillarida ko‘plab olimlar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar va tarixchilar tomonidan tadqiq

etilgan. Ilmiy adabiyotlarda asosan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari, pensiya va nafaqa tizimining rivoji masalalari yoritilgan. Shuningdek, davlat rahbariyati asarlari, rasmiy nutqlar va konseptual hujjatlarda ijtimoiy himoya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati muayyan davr yoki alohida yo‘nalishlar doirasida olib borilgan bo‘lib, 1991–2021-yillarni qamrab olgan holda ijtimoiy himoya siyosatining shakllanish jarayonlarini tarixiy evolyutsiya nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan tub islohotlar, manzilli ijtimoiy yordam va raqamlashtirish jarayonlarining tarixiy tahlili ilmiy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Shu bois, mazkur maqola mavzusi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilishi bilan birga, O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati taraqqiyotining yaxlit manzarasini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalari:

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, oldida bir qancha muammolarni hal qilish masalasi kun tartibida o‘z yechimini kutayotganligini bilar edi. Bunday muammolarni oldini olish maqsadida davlatimiz tomonidan aholini, ayniqsa uning kam ta’minlangan qismini faol himoya qilishga harakat qildi. Mamlakatimiz har bir sohada kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi orqali – aholining kam ta’minlangan qismini har tomonlama himoya qildi. [1]

1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy himoya siyosati Sovet Ittifoqidan meros qolgan tizim asosida shakllana boshladi, bunda dastlabki yillarda pensiya ta’minoti, nogironlar va kam ta’minallanganlar himoyasi asosiy e’tibor markazida bo‘ldi, davlat ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishga kirishdi, bu esa yoshlar, aholi va ijtimoiy himoya sohasidagi huquqiy asoslarni

mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinishiga olib keldi. Asosiy yo‘nalishlar:

Ijtimoiy himoya tizimining qayta tiklanishi: Sovet davridan qolgan ijtimoiy ta’minot (pensiyalar, nafaqalar) tizimi saqlab qolindi va asta-sekin o‘zgartirildi.

Qonuniy asosni yaratish: Yoshlarga oid davlat siyosati (1991-yil) kabi qonunlar qabul qilinib, ijtimoiy himoya jarayonlariga huquqiy zamin yaratildi.

Davlat dasturlari: Yoshlar va aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun kompleks davlat dasturlari ishlab chiqila boshlandi.

Nazorat va javobgarlik: Qonunlarning ijrosini nazorat qilish (Prokuratura va mahalliy kengashlar orqali) va qonun buzilishida mansabdor shaxslarning javobgarligi belgilandi. [2]

2007-yilning “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ko‘lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj toifalari va oilalarga, nogironlar va yolg‘iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarning keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish [3] bo‘yicha prezident qarori.

Aholining ijtimoiy ta'minoti va uni ijtimoiy himoyalash sohasida Vazirlar Mahkamasi qonunlarni ijro etish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 249-sonli qarori68 bilan davlat pensiyasini tayinlash va hisoblashga doir normativ huquqiy hujjatlar majmui tasdiqlandi (qarorning ilovalari). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007- yil 8-maydagi 95-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy

muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yiI 6-apreldagi PQ-616-sonli qarorini amalga oshirish choratadbirlari haqida»gi qarori hamda 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli «Davlat pensiyasini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori [4] bilan ijtimoiy ta'minot qonunchiligi sohasida muhim o‘zgarish va yangilanishlar joriy etildi.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida inson huquqlari va manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar kechmoqda. Bu kabi demokratik islohotlarni izchillashtirish, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash hamda erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish davrida ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi farovonligi barqarorligini ta’minlash choralarini tizimli ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar tarixi iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijtimoiy masalalarni hal qilish bilan barobar olib borish joizligini ko‘rsatadi. Bu amaliyot jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlab, barqaror rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa rivojlangan davlatlarda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar barham topadi, yuzaga kelayotgan har qanday masala davlat va jamiyat institutlarining o‘zaro ijtimoiy kelishuvi, konsensusi orqali hal qilib boriladi. Aks holda, ijtimoiy norozilik va kelishmovchiliklar keskinlashib, jamoat xavfsizligi, odamlar tinchligi va osoyishtaligiga raxna soluvchi omillar ko‘payaveradi.

Shunga ko‘ra, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy adolatni ta’minlash kabi xalqparvar siyosatning muhim elementlariga alohida e’tibor berish, odamlarning ijtimoiy kayfiyatiga ta’sir etuvchi muammolarni aniqlash va hal etish, ijtimoy kafolatlarni, aholini har tomonlama himoyalash choralarini ko‘rish davlatimizning muhim vazifalaridan bo‘lib kelmoqda. [5].

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning keyingi bosqichi 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasida” amalga oshirildi. Unga ko‘ra Harakatlar strategiyasining 4 – konsepsiyasi sifatida Ijtimoiy sohani rivojlantirish

ilgari surildi. Ushbu yo‘nalish 5 ta muhim yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: Birinchi yo‘nalish: aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirish. Bandlikni ta’minlashda ayniqsa maktab va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta’minlash alohida o‘rin egallaydi. Ikkinchi yo‘nalish: aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Sog‘liqni saqlash tizimida eng avvalo tez tibbiy yordam ko‘rsatish faoliyati sifatini yaxshilashga, mamlakatda farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga, tibbiyot muassasalarini arzon va sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlashga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, onalar va bolalarning tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. Uchinchi yo‘nalish: arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, hamda moderinizatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Aholi eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqorolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga, muhtoj boshqa shaxslarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish, hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash. Bundan tashqari ekologik toza va xavfsiz muhitni yaratish, maishiy chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish, atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish dasturlari qamrab olindi. To‘rtinchidan ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish bunda sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozori zamonaviy talablaridan kelib chiqib, malakali kadrlar tayyorlash dasturlari belgilandi. Beshinchi yo‘nalish: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bunda jismonan sog‘lom, ruhiy va intelektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni kamol toptirish asosiy vazifa etib belgilandi. [6].

Umuman olganda, 1991–2021-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati evolyutsion rivojlanib, milliy model sifatida shakllandi. Mazkur davr

tajribasi ijtimoiy adolat, aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ijtimoiy himoya tizimining muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi hamda kelgusida ushbu sohada amalga oshiriladigan islohotlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. 1991–2021-yillar davomida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati mustaqillik sharoitida bosqichma-bosqich shakllanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Dastlabki yillarda ijtimoiy himoya asosan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholini keskin ijtimoiy xavflardan himoyalash, kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratildi. Keyingi bosqichlarda esa tizimli yondashuv kuchayib, pensiya ta’minoti, bandlik, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar, bolalar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha normativ-huquqiy baza takomillashtirildi.

2016-yildan keyingi davrda ijtimoiy himoya siyosatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan islohotlar doirasida ijtimoiy yordam manzilliligi kuchaytirildi, raqamli mexanizmlar joriy etildi, ijtimoiy xizmatlar qamrovi kengaytirildi hamda davlat va jamiyat hamkorligi mustahkamlandi. Natijada ijtimoiy himoya tizimi faqat yordam ko‘rsatishga emas, balki ijtimoiy faollikni oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qila boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://interscience.uz/index.php/home/article/download/4420/4004/9293
2. https://lex.uz/mact/-1112866
3. https://lex.uz/ru/docs/-140894
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011, 37-son, 377-modda
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021-

yillarga mo‘ljallangan Harakatlar Strategiyasi” to‘grisidagi PF-5308-sonli qarori.

6. Mirkomilov A. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish mehrli jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos bo‘lmoqda. “Yangi O‘zbekiston” 2023. https://yuz.uz/uz/news/adolatli-ijtimoiy-siyosat-yuritish-mehrli-jamiyatimizning-yangi-qiyofasiga-asos-bolmoqda